

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

### №3

2026  
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 62 sahifa.  
2026-yil, mart

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                        |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI .....                                                                   | 24 |
| <b>Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li</b>                                                                                                           |    |
| FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL .....                                                   | 30 |
| <b>Abduraimova Nigora Abdugapparovna</b>                                                                                                               |    |
| YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI .....                                                          | 37 |
| <b>Toxtabayev Oybek Odilovich</b>                                                                                                                      |    |
| QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV .....                                                                           | 42 |
| <b>Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>                                                                                 |    |
| O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI .....                                                       | 48 |
| <b>Kuvatova Oliya Sheraliyevna</b>                                                                                                                     |    |
| QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI..... | 54 |
| <b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>                                                                                                                     |    |

# QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

**Igitov Jurabek Kuzibekovich**

Toshkent arxitektura qurilish universiteti v.b.dosenti, PhD.

E-mail: [igitov2021@gmail.com](mailto:igitov2021@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qurilish sanoatidagi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ta'sir kanallari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Qurilish tarmog'ining kapital sig'imi yuqoriligi, loyihalarning texnologik zanjiri murakkabligi va hududiy mehnat bozoriga ta'siri sezilarli ekani sharoitida kichik biznesning mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy maqomi, resurs bazasi va tadbirkorlik xavfi bilan belgilanadigan alohida iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lishi asoslanadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-tahliliy usullar, nazariy umumlashtirish hamda institutsional tahlil vositalari qo'llanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, qurilishdagi kichik biznes subyektlari zanjirli kooperatsiya va subpodryad mexanizmlari orqali yirik loyihalar ijrosini tezlashtirishi, raqobat muhitini kuchaytirishi, mahalliyashtirish va xizmatlar diversifikatsiyasini ta'minlashi, shuningdek bandlik, soliq tushumlari va hududiy iqtisodiy faollikni barqaror oshirishda muhim iqtisodiy drayver vazifasini bajarishi ko'rsatildi. Maqolada kichik biznesning tarmoqdagi o'rnini baholash uchun konseptual mezonlar (qiymat yaratish ulushi, kooperatsiya darajasi, ish o'rinlari barqarorligi, mahsuldorlik va innovatsion faollik) taklif etilib, institutsional muhitni takomillashtirish, davlat xaridlarida ochiqlikni kuchaytirish, standartlashtirish hamda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy xulosalar shakllantirildi.

**Kalit so'zlar:** qurilish sanoati, kichik biznes subyektlari, iqtisodiy mohiyat, tadbirkorlik, kooperatsiya, subpodryad, qiymat yaratish, bandlik, raqobat muhiti, hududiy rivojlanish, milliy iqtisodiyot.

**Abstract.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the economic essence of small business entities in the construction industry and their role and impact channels within the national economy. Given the high capital intensity of the construction sector, the complexity of technological project chains, and its significant influence on regional labor markets, small businesses are substantiated as a distinct economic category characterized by ownership form, organizational and legal status, resource base, and entrepreneurial risk. The study applies a systemic approach, comparative-analytical methods, theoretical generalization, and institutional analysis tools. The findings indicate that small businesses in construction accelerate the implementation of large-scale projects through chain cooperation and subcontracting mechanisms, enhance competition, support localization and service diversification, and serve as key drivers of employment, tax revenues, and regional economic activity. Conceptual evaluation criteria (value-added share, level of cooperation, employment stability, productivity, and innovation activity) are proposed to assess the sectoral role of small businesses. Practical recommendations are developed to improve the institutional environment, increase transparency in public procurement, strengthen standardization, and expand financing opportunities.

**Keywords:** construction industry, small business entities, economic essence, entrepreneurship, cooperation, subcontracting, value creation, employment, competitive environment, regional development, national economy.



**Аннотация.** В статье научно-теоретически проанализированы экономическая сущность субъектов малого бизнеса в строительной отрасли и их роль в национальной экономике, а также каналы воздействия. Обосновано, что в условиях высокой капиталоемкости строительной отрасли, сложности технологической цепочки проектов и значительного влияния на региональный рынок труда малый бизнес выступает как самостоятельная экономическая категория, определяемая формой собственности, организационно-правовым статусом, ресурсной базой и предпринимательским риском. В исследовании применены системный подход, сравнительно-аналитические методы, теоретическое обобщение и инструменты институционального анализа. Установлено, что субъекты малого бизнеса в строительстве через цепную кооперацию и субподряд ускоряют реализацию крупных проектов, усиливают конкурентную среду, способствуют локализации и диверсификации услуг, а также являются важным драйвером занятости, налоговых поступлений и региональной экономической активности. Предложены концептуальные критерии оценки роли малого бизнеса (доля создания добавленной стоимости, уровень кооперации, устойчивость занятости, производительность и инновационная активность), а также сформулированы практические выводы по совершенствованию институциональной среды, повышению прозрачности государственных закупок, стандартизации и расширению финансовых возможностей.

**Ключевые слова:** строительная отрасль, субъекты малого бизнеса, экономическая сущность, предпринимательство, кооперация, субподряд, создание стоимости, занятость, конкурентная среда, региональное развитие, национальная экономика.

## KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi strategik tarmoq sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, urbanizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda sanoat va xizmatlar sektorining kapital bazasini kengaytirishda qurilish korxonalarining roli hal qiluvchi hisoblanadi. Qurilish tarmog'i mehnat bozoriga multiplikativ ta'sir ko'rsatishi, qo'shimcha qiymat zanjirlarini (qurilish materiallari, logistika, loyihalash, servis xizmatlari) faollashtirishi orqali milliy iqtisodiyotda "lokomotiv" funksiyasini bajaradi.

Shu bilan birga, tarmoqning institutsional va moliyaviy xususiyatlari — yuqori kapital sig'imi, loyihalarning uzoq investitsion sikli, tushum va xarajatlar oqimining vaqt bo'yicha nomutanosibligi, shuningdek narx, foiz stavkasi, valyuta va kontrakt risklarining yuqoriligi — qurilish korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasini alohida ilmiy-amaliy yo'nalishga aylantirmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda "yashil" transformatsiya talablari, energiya samaradorligi mezonlari, ESG standartlari hamda raqamlashtirish (BIM texnologiyalari, loyihalarni boshqarish tizimlari, ta'minot zanjiri monitoringi) kapital qiymati va moliyalashtirish manbalariga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Amaliyotda qurilish korxonalarini moliyalashtirishda asosiy e'tibor ko'pincha an'anaviy bank kreditlariga qaratiladi. Bunday modelning ustuvorligi qarz yukining ortishi, likvidlik tavakkalchiligidan kuchayishi hamda kapital tuzilmasining bir tomonlama shakllanishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, bank kreditlariga ortiqcha tayanish investitsion faollikni cheklaydi, ayniqsa iqtisodiy sikl o'zgarishlari, monetar qat'iylashuv yoki qurilish bozorida kon'yunktura pasayishi sharoitida risklarni oshiradi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital bozori instrumentlari — aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, loyiha obligatsiyalari, "yashil" obligatsiyalar, infratuzilmaviy fondlar, ayrim hollarda aktivlarni sek'yuritizatsiya qilish mexanizmlari — keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish bilan birga, korporativ boshqaruv sifatini oshirish, oshkoralikni kuchaytirish, kredit reytinglari va investorlar oldidagi hisobdorlik orqali moliyaviy intizomni mustahkamlaydi.

Mazkur ilmiy ishning maqsadi qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital bozori instrumentlaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy modellarni tahlil qilish hamda ularni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

1. qurilish korxonalari moliyalashtirish tizimida kapital bozori instrumentlarining nazariy-metodologik o'rni ochib berish;
2. aksiyalar va korporativ obligatsiyalar orqali moliyalashtirish mexanizmlarining afzallik va cheklovlarini risk, daromad va muddat mezonlari asosida tizimlashtirish;
3. xorijiy amaliyotda samarali ishlayotgan institutsional shartlarni (investorlar bazasi, reyting infratuzilmasi, axborot oshkoraligi, korporativ boshqaruv tizimi) tahlil qilish;
4. milliy moliya bozori sharoitida emissiya amaliyotini kengaytirish, institutsional muhitni takomillashtirish hamda risklarni pasaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti — qurilish sanoati korxonalarini moliyalashtirish jarayonlari; tadqiqot predmeti esa kapital bozori instrumentlari (aksiyalar va korporativ obligatsiyalar) orqali moliyalashtirish mexanizmlari hamda ularning moliyaviy barqarorlikka ta'sir yo'nalishlaridan iborat. Tadqiqot metodologiyasi doirasida tizimli yondashuv, qiyosiy-tahliliy usul, nazariy umumlashtirish, institutsional risk tahlili va konseptual modellash qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kapital bozori orqali moliyalashtirishning qurilish tarmog'iga xos risk omillari bilan bog'liq jihatlarini tizimli yoritish, emissiya mexanizmlarini korporativ boshqaruv va investor ishonchi omillari bilan uzviy bog'liq holda baholash hamda milliy bozor sharoitiga mos amaliy yo'l xaritasini asoslash bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa qurilish korxonalari uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kapital qiymatini optimallashtirish va yirik infratuzilmaviy loyihalarni uzluksiz moliyalashtirishga xizmat qiluvchi takliflar tizimini shakllantirishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital bozori infratuzilmasi doirasida muomalaga chiqariladigan korporativ qimmatli qog'ozlar — aksiyalar va korporativ obligatsiyalar — iqtisodiy subyektlar tomonidan emissiya qilinadigan moliyaviy instrumentlar sifatida korxonalarining resurs bazasini kengaytirish, kapital tuzilmasini shakllantirish hamda investitsiya strategiyasini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Amaliyotda bunday instrumentlar, odatda, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik korporativ tuzilmalar tomonidan chiqarilib, investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, likvidlikni muvozanatlash hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv kapital sig'imi yuqori bo'lgan qurilish tarmog'i uchun moliya jalb etishning shunchaki "alternativ kanali" emas, balki manbalarni diversifikatsiya qilish va kapital qiymatini boshqarishga qaratilgan strategik yechim sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda korporativ moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati, kapital tuzilmasi va risklarni taqsimlashga ta'siri keng yoritilgan. Korporativ moliya nazariyasining klassik yondashuvlarida aksiya va obligatsiyalar kompaniya uchun uzoq muddatli resurslarni jalb etish, kapitalning o'rtacha tortilgan qiymatini (WACC) optimallashtirish hamda moliyaviy risklarni boshqarishda asosiy moliyaviy qarorlar bloki sifatida talqin qilinadi. Emissiya orqali moliyalashtirish qarz yukini me'yorlashtirish, qayta moliyalashtirish bosimini kamaytirish va investitsiya loyihalarining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish sohasidagi uzoq muddatli loyihalar uchun "muddat-likvidlik-stavka" muvozanatini ta'minlash hal qiluvchi omilga aylanadi.

Shu bilan birga, korporativ qimmatli qog'ozlar bozori samaradorligi huquqiy-institutsional muhit bilan uzviy bog'liq ekani ilmiy adabiyotlarda asoslangan. Masalan, U. L. Cary korporativ huquq va institutsional tartiblar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilib, kompaniyalarning kapital bozoriga chiqishida normativ bazaning sifati, regulyator me'yorlar va bozor intizomining rolini konseptual jihatdan ochib beradi. Bu esa emissiya jarayonlarining institutsional "tayyorgarligi" va ishonch arxitekturasini baholash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Investorlar ishonchi va talab dinamikasini belgilovchi asosiy shartlar sifatida shaffoflik, axborot oshkoraligi (disclosure), korporativ boshqaruv sifati hamda investor huquqlarini himoya qilish masalalari ajratib ko'rsatiladi. Qimmatli qog'ozlar regulyatsiyasi bo'yicha ilmiy ishlarda (James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort va boshqalar) aynan ushbu omillar kapital bozorida risk premiyasi, emissiya qiymati va likvidlikka ta'sir qiluvchi institutsional poydevor sifatida talqin etiladi. Donald C. Langevoort "publicness" va oshkoralik standartlarining kapital bozorida rag'batlar hamda hisobdorlikni shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. John C. Coffee Jr. esa disclosure talablari va korporativ boshqaruv me'yorlarining, jumladan ESG kun tartibining, kapital bozorida risklarni baholash va investor talabining uzoq muddatli trendlariga bevosita ta'sir qilishini asoslaydi.

Qurilish va infratuzilmaviy loyihalar kontekstida korporativ obligatsiyalar bilan bir qatorda project finance va project bonds kabi instrumentlar alohida tadqiqot yo'nalishini tashkil etadi. Loyiha moliyasi bo'yicha xalqaro qo'llanmalarda qurilish risklari yuqori bo'lgan sharoitda moliyalashtirish ko'pincha limited-recourse xususiyatiga ega ekani, ya'ni qarz qaytarilishi asosan loyihaning kelajakdagi pul oqimlariga bog'lanishi ta'kidlanadi. Infratuzilma moliyasida obligatsiyalashtirishning cheklangan qo'llanishi, uning sabablari (boshlang'ich bosqich risklari, monitoring murakkabligi, kontrakt tuzilmasi) hamda bank kreditlariga nisbatan farqli jihatlar xalqaro tahlillarda tizimli bayon etilgan. Shu bilan birga, mintaqaviy tajribalar, xususan Osiyoda infratuzilma loyihalari uchun obligatsiya moliyasini rivojlantirish amaliyoti ham keng o'rganilgan. PPP (Public-Private Partnership) loyihalarida project bonds va kredit riskini kamaytirish mexanizmlarini qo'llash imkoniyatlari ham nazariy va amaliy modellar asosida tadqiq etilgan.

So'nggi yillarda infratuzilma va qurilish sohasida "yashil" moliyalashtirish tendensiyasi kuchaymoqda. Energiya samarador binolar, ekologik infratuzilma va "clean transport" loyihalarini moliyalashtirishda green bonds hamda green frameworks amaliyotining kengayishi kuzatilmoqda. Bu yo'nalish qurilish korxonalari uchun kapital bozori instrumentlarini ESG talablari bilan uyg'unlashtirish zaruratini dolzarb masalaga aylantirmoqda.



Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, IPO/SPO jarayonlari, regulyator islohotlar va bozor infratuzilmasini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan qurilish sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan aksiyalar va korporativ obligatsiyalar orqali moliyalashtirishni tarmoq risklari (uzoq investitsion sikl, kontrakt risklari, pul oqimlarining notekisligi) bilan bog'lab, institutsional shartlar (disclosure sifati, kredit reytinglari, investor bazasi) kesimida kompleks tahlil qilgan hamda xorijiy modellarni milliy sharoitga moslashtirish mexanizmlarini tizimlashtirgan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi.

Aynan mazkur ilmiy "bo'shliq" ushbu maqolaning yo'nalishini belgilaydi va qurilish tarmog'ida kapital bozori instrumentlaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda amaliy adaptatsiya mexanizmlarini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital bozori instrumentlarining (aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, loyihaga bog'langan moliyalashtirish shakllari) o'rni, ishlash mexanizmi va samaradorlik shartlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot ikki ustunga tayanuvchi model asosida qurildi: bir tomondan, nazariy-institutsional tahlil va xorijiy keyslar solishtirmasi; ikkinchi tomondan, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi indikatorlar orqali konseptual modellashirish.

### 1) Nazariy-metodologik asos va konseptual model:

Metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy-tahliliy usul, mantiqiy umumlashtirish, kontent-tahlil hamda institutsional tahlil vositalari qo'llanildi. Ushbu yondashuv kapital bozori orqali moliyalashtirishni faqat qo'shimcha moliya manbai sifatida emas, balki kapital tuzilmasini boshqarish, likvidlikni barqarorlashtirish, risklarni taqsimlash va korporativ boshqaruv talablariga integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Konseptual modelning "yadrosi" sifatida qurilish tarmog'iga xos quyidagi omillar ajratib olindi:

- yuqori kapital sig'imi va aktivlar strukturasining inertligi;
- investitsiya loyihalarining uzoq sikli va pul oqimlarining notekisligi;
- shartnoma (kontrakt) risklari, kechikishlar va narxlar o'zgaruvchanligi;
- foiz stavkasi va qayta moliyalashtirish xavfi;
- korporativ boshqaruv hamda axborot oshkoraligi talablari.

Mazkur omillar kapital bozori instrumentlarining samaradorligini baholashda asosiy tahliliy o'lchovlar sifatida qabul qilindi.

### 2) Tadqiqot bosqichlari va tahlil jarayoni:

Birinchi bosqich — nazariy manbalar va ilmiy adabiyotlar sharhi asosida kapital bozori instrumentlari orqali moliyalashtirishning nazariy asoslari tizimlashtirildi. Ushbu bosqichda kapital tuzilmasi, kapital qiymati (WACC), risk premiyasi, likvidlik bosimi kabi tushunchalar aniqlashtirilib, qurilish tarmog'ining xususiyatlari bilan bog'langan konseptual model shakllantirildi.

Ikkinchi bosqich — rivojlangan mamlakatlarda qurilish va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan instrumentlar solishtirma tahlil qilindi. Solishtirish quyidagi mezonlar asosida amalga oshirildi:

- resurs jalb etish qiymati (foiz stavkasi/dividend kutilmalari), muddat va xavf profili;
- kapital tuzilmasiga ta'sir (leverage darajasi, qarz yuki va kapital barqarorligi);
- likvidlikka ta'sir (pul oqimlari bosimi va qayta moliyalashtirish ehtimoli);
- investorlar bazasi va bozor likvidligi;
- emissiya jarayoniga qo'yiladigan institutsional talablar (disclosure, audit, reyting, korporativ boshqaruv).

Uchinchi bosqich — xorijiy modellarning institutsional shartlari va amaliy natijalari tahlil qilinib, ularni milliy moliya bozori sharoitiga tatbiq etish imkoniyatiga ta'sir etuvchi omillar baholandi. Bu jarayonda "institutsional tayyorgarlik" (readiness) yondashuvi qo'llanildi. Regulyator baza, bozor infratuzilmasi, audit hisobotlari sifati, investorlar huquqlarini himoya qilish darajasi, reyting mexanizmlari va korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha to'siqlar hamda imkoniyatlar taqqoslandi. Natijada emissiya amaliyotini kengaytirish va moliyalashtirishni diversifikatsiya qilishga doir amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### 3) Moliyaviy barqarorlikni baholash indikatorlari:

Kapital bozori instrumentlari ta'sirini baholash uchun moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi indikatorlar tizimi qo'llanildi. Jumladan:

Likvidlik ko'rsatkichlari:

- joriy likvidlik;
- tezkor likvidlik;
- loyiha sikllariga bog'liq pul oqimi bosimi.

Qarz yuki va xizmat ko'rsatish qobiliyati:

- qarz/kapital nisbati;
- foizlarni qoplash koeffitsienti (interest coverage ratio);
- DSCR (Debt Service Coverage Ratio) — loyiha pul oqimlari mavjud bo'lganda.

Rentabellik va samaradorlik:

- aktivlar rentabelligi (ROA);
- kapital rentabelligi (ROE);
- operatsion marja ko'rsatkichlari.

Kapital qiymati:

- WACC dinamikasiga ta'sir (risk darajasi va manbalar diversifikatsiyasi hisobiga).

Mazkur indikatorlar emissiya instrumentlarining nafaqat "barqaror" sharoitdagi, balki qurilishga xos risklar sharoitidagi ta'sir kanallarini aniqlashga qaratildi.

4) Ssenariy va sezgirlik (sensitivity) tahlili:

Qurilish sohasida risklar darajasi yuqori bo'lgani sababli ssenariy modellashtirish va sezgirlik tahlili elementlari ham qo'llanildi. Quyidagi omillar o'zgarishi sharoitida moliyaviy barqarorlikka ta'sir konseptual baholandi:

- foiz stavkalarining oshishi;
- to'lovlar kechikishi;
- qurilish materiallari narxining o'zgarishi;
- loyiha muddatining uzayishi.

Baholash mezonlari sifatida:

- likvidlik bosimining kuchayish darajasi;
- qarz xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ta'sir;
- kapital qiymati (WACC) va risk premiyasi dinamikasi tahlil qilindi.

Bu yondashuv tavsiyalarni nazariy "ideal" modeldan ko'ra, real biznes muhiti sharoitiga yaqinlashtirish imkonini berdi.

5) Ishonchlilik va natijalarni mustahkamlash:

Tadqiqot xulosalarini asoslashda ma'lumotlarni o'zaro tasdiqlash (triangulyatsiya) usuli qo'llanildi. Adabiyotlar sharhi, xorijiy modellar solishtirmasi, institutsional readiness bahosi va moliyaviy indikatorlar tizimi o'zaro bog'langan mantiqiy zanjir sifatida ishlatildi. Shu orqali natijalarning ichki izchilligi, konseptual yaxlitligi va amaliy tavsiyalarning dalillarga tayanish darajasi oshirildi.

Natijada qo'llangan metodologik yondashuv kapital bozori instrumentlarining qurilish tarmog'ida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tizimli, riskga sezgir va institutsional kontekstda baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sanoati korxonalarining kapital bozoriga chiqishga qiziqishi, avvalo, infratuzilmaviy loyihalar hajmining kengayishi, davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarining faollashuvi, shuningdek "yashil qurilish" va barqaror infratuzilmaga yo'naltirilgan moliyalashtirish standartlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Ushbu tendensiyalar qurilish korxonalari uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Uzoq sikllli loyihalarda bitta manbaga tayanish likvidlik bosimi va qayta moliyalashtirish xavfini oshirishi mumkin, kapital bozori esa ushbu xavflarni muayyan darajada taqsimlash imkonini beradi.

Kapital bozori instrumentlarining samaradorligi, afzalliklari va cheklovlari tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish qurilish korxonalari uchun quyidagi asosiy ustunliklarni ta'minlaydi: moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va uzluksizlikni ta'minlash; bank kreditlariga qaramlikni kamaytirish; uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkoniyati; korporativ boshqaruv va hisobot shaffofligini oshirish.

Shu bilan birga, ayrim cheklovlar amaliyotda sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Kapital bozori yetarlicha chuqur bo'lmasa, investorlar bazasi tor bo'lsa yoki oshkorlik va investorlar huquqlarini himoya qilish institutsional jihatdan to'liq ta'minlanmagan bo'lsa, emissiya qiymati oshishi va talabning qimmatlashishi ehtimoli yuzaga keladi. Shu bois xorijiy tajribani to'liq ko'chirish emas, balki institutsional shartlarni milliy muhitga moslashtirgan holda bosqichma-bosqich joriy etish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida qurilish kompaniyalari foydalanadigan instrumentlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kapital bozoriga chiqish faqat IPO bilan cheklanmaydi. Aksincha, "instrumentlar portfeli" shakllantiriladi. Korporativ obligatsiyalar, xususiy joylashtirishlar, ayrim hollarda "yashil" obligatsiyalar hamda barqaror moliyalashtirish modellari keng qo'llaniladi.

Masalan, Skanska qurilish va development loyihalarini moliyalashtirishda green bonds instrumentidan alohida kanal sifatida foydalanadi. Kompaniya ushbu mexanizمنى o'zining "sustainable commercial real estate"



portfeli bilan bog'lab, yashil moliyalashtirish modelini shakllantirgan. 2023-yilda kompaniya taxminan 4,5 mlrd SEK miqdorida yashil obligatsiyalar chiqargani haqida ma'lumot berilgan.

VINCI misolida esa kompaniyaning "debt and bond investors" bo'limida guruhning 2025-yil oxiri holatiga obligatsiya chiqarishlari ro'yxati va parametrlari keltirilgan bo'lib, bu qurilish-infratuzilma guruhlarida obligatsiya moliyasi tizimli instrument sifatida qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

Ushbu misollar shuni anglatadiki, qurilish korxonalarida kapital bozoriga chiqish "bir martalik IPO" emas, balki uzoq muddatli moliyaviy tizimni shakllantirish jarayonidir.

So'nggi yillarda global bozorlarda foiz stavkalari yuqori bo'lgan davr kapital qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, U.S. Department of the Treasury tomonidan chiqariladigan 10 yillik g'aznachilik obligatsiyalari daromadliligi 2023-yil oktabr oyida qisqa muddatga 5 foiz chegarasidan oshgani qayd etilgan.

Bunday sharoitda qurilish korxonalari uchun moliyalashtirish manbalarini tanlashda "aksiya, obligatsiya va gibril instrumentlar" o'rtasidagi qarorlar yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Obligatsiyalar qimmatlashsa, emissiya narxi oshadi; aksiya emissiyasi esa ulushning suyultirilishiga (dilution) olib keladi va investorlar kutilmalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu sababli amaliyotda ko'plab kompaniyalar moliyalashtirishni portfellashtirishga o'tmoqda: qisman obligatsiya, qisman aksiya, qisman bank kredit liniyalari, zarur hollarda loyiha moliyasi instrumentlaridan foydalaniladi.

Qurilish korxonalarining kapital bozoriga chiqish yo'llarini grafik ko'rinishda (1-rasm) aks ettirishda quyidagi tarkibiy bog'liqlikni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: moliyaviy ehtiyoj va loyiha xususiyatlari → mos moliyalashtirish instrumentlari tanlovi → kapital tuzilmasining shakllanishi → risklarni boshqarish mexanizmlari → moliyaviy barqarorlik va investitsion uzluksizlik.



1-rasm. Qurilish kompaniyalarining fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilish usullari

Instrumentlar bloki: IPO/SPO (aksiya), korporativ obligatsiyalar, "yashil" va boshqa barqaror (labeled) obligatsiyalar, xususiy joylashtirish (private placement), ayrim hollarda loyihaga bog'langan moliyalashtirish (project-linked finance).

Ishtirokchilar bloki: emitent (qurilish kompaniyasi), fond birjasi, anderrayter (investitsiya banki), investorlar, depozitariy va kliring tashkilotlari, reyting agentliklari, audit hamda axborot oshkorligi institutlari.

Natijaviy ta'sir: kapital tuzilmasining barqarorligi, likvidlik bosimining pasayishi, kapital qiymati (WACC) dinamikasining optimallasuvi, korporativ boshqaruv sifati hamda investor ishonchining mustahkamlanishi.

Qurilish sohasida "yashil" moliya instrumentlari (green bonds va boshqa labeled bonds)ning ahamiyati ortib bormoqda, biroq bozor dinamikasi bir tekis emas. Masalan, labeled sustainable bond segmentida 2024-yilda yillik emissiya hajmi taxminan 1,1 trln AQSh dollari atrofida qayd etilgan (green, social, sustainability va boshqalar). Shu bilan birga, 2025-yilda green bond emissiyasida ma'lum darajada pasayish tendensiyasi kuzatilgani haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Bu holat muhim metodologik xulosani shakllantiradi: qurilish korxonasi "yashil" instrumentni tanlagan taqdirda, uni faqat imij yoki kommunikatsion vosita sifatida emas, balki loyiha portfeli, ESG mezonlari, hisobot va mustaqil verifikatsiya talablarini institutsional darajada puxta tayyorlash asosida joriy etishi lozim. Aks holda, bozor buni risk premiyasi orqali narxlaydi va kapital qiymati oshishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital bozori instrumentlaridan (aksiyalar, korporativ obligatsiyalar, loyiha obligatsiyalari, "yashil" moliya vositalari) foydalanishning iqtisodiy mazmuni va amaliy natijadorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kapital bozori orqali moliyalashtirish qurilish tarmog'ida shunchaki "qo'shimcha pul manbai" emas, balki kapital tuzilmasini optimallashtirish, likvidlik bosimini pasaytirish, uzoq muddatli resurslarni barqaror jalb etish hamda risklarni keng investorlar qatlami o'rtasida taqsimlashga xizmat qiladigan strategik moliyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Manbalarni diversifikatsiya qilish qurilish sanoati korxonalarining uzoq siklli loyihalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bank krediti ustun bo'lgan sharoitda korxonalar qayta moliyalashtirish xavfi, foiz stavkalari o'zgarishi va likvidlik tanqisligiga ko'proq duch keladi. Kapital bozori instrumentlari ushbu xavflarni muayyan darajada muvozanatlashtirish imkonini beradi.

Korporativ boshqaruv va oshkorlik kapital bozoridagi "ishonch valyutasi" hisoblanadi. Qurilish korxonalarida IFRSga yaqin moliyaviy hisobot, sifatli audit, axborotni oshkor etish intizomi hamda investorlar bilan samarali kommunikatsiya yo'lga qo'yilmagan taqdirda emissiya qiymati oshishi va talab pasayishi mumkin.

Kapital bozori instrumentlarining samaradorligi institutsional muhit bilan bevosita bog'liq. Birja infratuzilmasi, kliring-depozitariy tizimlari, anderryayting xizmatlari, reyting va audit institutlari yetarlicha rivojlanmagan sharoitda emissiya bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlar yuqori bo'lib qoladi.

Qurilish tarmog'iga xos risklar (materiallar narxining o'zgaruvchanligi, ta'minot zanjiri uzilishlari, kechikishlar, kontrakt tavakkalchiligi, bozor kon'yunkturasi) emissiya shartlarida albatta inobatga olinishi lozim. Shu sababli tarmoq uchun maqsadli (targeted) instrumentlar — loyiha obligatsiyalari, kredit bilan qo'llab-quvvatlangan (credit-enhanced) obligatsiyalar, "yashil" obligatsiyalar va aralash gibril instrumentlar — amaliy jihatdan ko'proq mos keladi.

"Yashil qurilish" va barqaror infratuzilmaga talab ortib borayotgan sharoitda "yashil obligatsiyalar" qurilish korxonalari uchun kapital bozoriga kirishning samarali yo'li bo'lishi mumkin. Biroq ushbu instrument faqat nom bilan emas, balki maqsadli sarf (use-of-proceeds), monitoring, hisobdorlik va mustaqil verifikatsiya talablari asosida qo'llanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, kapital bozori orqali moliyalashtirishni qurilish sohasida kengaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

Moliyaviy hisobot va oshkoralikni standartlashtirish: yillik va yarim yillik hisobotlar, pul oqimi prognozlar hamda loyiha portfeli risklari bo'yicha ochiq ma'lumotlar paketini shakllantirish.

Korporativ boshqaruvni kuchaytirish: kuzatuv kengashi vakolatlarini aniqlashtirish, audit qo'mitasi va risk-menejment funksiyasini institutsionallashtirish, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mexanizmlarini joriy etish.

Emissiya oldidan tayyorgarlik: "investment case"ni ishlab chiqish, loyihalarning iqtisodiy asosi, kontrakt bazasi, cash-flow modeli, DSCR va likvidlik buferi kabi ko'rsatkichlarni aniq rejalar asosida taqdim etish.

Investorlar bilan ishlash madaniyati (IR): doimiy kommunikatsiya, savol-javob sessiyalari, emissiyadan keyingi hisobdorlikni saqlash talabni ham, narx shakllanishini ham ijobiy ta'sir qiladi.

Reyting va audit institutlarini rivojlantirish: qurilish emitentlari uchun tarmoqqa xos reyting metodologiyalarini takomillashtirish hamda audit sifat nazoratini kuchaytirish.

Anderryayting va listing jarayonlarini soddalashtirish: prospekt talablari va standart shablonlarni optimallashtirish, raqamli hujjat aylanishini kengaytirish orqali tranzaksiya xarajatlarni kamaytirish.

Investorlar huquqlarini himoya qilishni mustahkamlash: axborotni oshkor etish intizomini ta'minlash, kechikkan hisobdorlikka nisbatan aniq javobgarlik mexanizmlarini joriy etish.

Davlat siyosati va regulyator darajasida:

— institutsional investorlar (pensiya, sug'urta va investitsiya fondlari) ishtirokini bosqichma-bosqich kengaytirish orqali bozor likvidligini oshirish;

— infratuzilma va PPP loyihalari uchun kredit-yengillashtirish mexanizmlarini (kafolat, sug'urta, partial guarantee yoki project finance doirasida risk taqsimoti vositalari) qo'llash orqali emissiya narxini maqbullashtirish va talabni rag'batlantirish;

— "yashil obligatsiyalar" uchun milliy ramka ishlab chiqish, sarf yo'nalishlari klassifikatsiyasi, verifikatsiya va hisobdorlik tartibini belgilovchi yagona yondashuvni shakllantirish orqali "yashil" segmentga ishonchni mustahkamlash.

Umuman olganda, kapital bozori instrumentlaridan foydalanish qurilish korxonalarini moliyalashtirishda korporativ qimmatli qog'ozlar ko'lamini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda investitsiya jalb qilish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). Principles of Corporate Finance. New York: McGraw-Hill. 960 p.
2. Fabozzi, F. J. (2019). Bond Markets: Analysis and Strategies. London: Pearson. 720 p.
3. Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2021). Fundamentals of Corporate Finance. New York: McGraw-Hill. 640 p.
4. Geltner, D., & Miller, N. (2018). Commercial Real Estate Analysis and Investments. Boston: Cengage Learning. 640 p.
5. OECD. (2020). Corporate Bond Markets in a Time of Unconventional Monetary Policy. Paris: OECD Publishing. 180 p.
6. World Bank. (2019). Infrastructure Finance and Capital Markets. Washington, DC: World Bank Publications. 210 p.
7. Yescombe, E. R. (2018). Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. London: Elsevier. 560 p.
8. Mishkin, F. S. (2020). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Boston: Pearson. 720 p.
9. Fabozzi, F. J., & Modigliani, F. (2019). Capital Markets: Institutions and Instruments. New Jersey: Prentice Hall. 580 p.
10. European Investment Bank. (2021). Financing Construction and Infrastructure Projects. Luxembourg: EIB. 150 p.
11. International Monetary Fund. (2022). Global Financial Stability Report. Washington, DC: IMF. 190 p.
12. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. New York: Wiley. 992 p.
13. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). Financial Institutions Management. New York: McGraw-Hill. 720 p.
14. Asian Development Bank. (2020). Capital Market Development and Infrastructure Financing. Manila: ADB. 170 p.
15. Sharpe, W. F., Alexander, G. J., & Bailey, J. V. (2018). Investments. New Jersey: Prentice Hall. 840 p.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)